Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekistonda yashil ipotekani tashkil etish va boshqarish amaliyotiga bag'ishlangan bo'lib, unda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan regulativ va institutsional islohotlar natijalari, tijorat banklari tomonidan ushbu islohotlarga javoban joriy etilayotgan yashil kreditlash amaliyotlari, mavjud tizimli muammolar tahlili hamda ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy, statistik, analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy tahlil asosida yashil moliyalashtirishning iqlim va energetika siyosati maqsadlariga ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: yashil ipoteka, yashil kreditlash, energiya samaradorligi, barqaror moliyalashtirish, iqlim o'zgarishlari, energetika siyosati.

Abstract. This article examines the practice of organizing and managing green mortgages in Uzbekistan. It analyzes the results of regulatory and institutional reforms implemented by the government, as well as green lending practices adopted by commercial banks in response to these reforms. The study also identifies existing systemic problems and develops proposals and recommendations for addressing them. Economic, statistical, and analytical methods, including analysis and synthesis, were applied in the research process. In addition, the impact of green financing on climate and energy policy goals was examined through regulatory and legal analysis.

Key words: green mortgage, green lending, energy efficiency, sustainable finance, climate change, energy policy.

Аннотация. Данная статья посвящена практике организации и управления «зелёными» ипотечными кредитами в Узбекистане. В ней рассматриваются результаты регуляторно-институциональных реформ, проводимых государством, а также практика «зелёного» кредитования, реализуемая коммерческими банками в ответ на данные реформы. Проанализированы существующие системные проблемы в данной сфере и разработаны предложения и рекомендации по их решению. В процессе исследования использованы экономические, статистические методы, а также методы анализа и синтеза. Кроме того, посредством нормативно-правового анализа изучено влияние «зелёного» финансирования на цели климатической и энергетической политики.

Ключевые слова: «зелёная» ипотека, «зелёное» кредитование, энергоэффективность, устойчивое финансирование, изменение климата, энергетическая политика.



KIRISH

Yashil ipoteka tushunchasi bugungi global moliyaviy muhitda ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida keng e'tirof etilmoqda, biroq O'zbekiston moliya tizimida ushbu tushuncha endigina shakllanish va rivojlanish bosqichida turibdi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra, yashil ipoteka — bu ipoteka kreditlash mexanizmlarining energiya samaradorligi va ekologik standartlar bilan integratsiyalashgan shaklidir. An'anaviy ipotekada asosiy e'tibor qarz oluvchining to'lov qobiliyati va garov qiymatiga qaratilsa, yashil ipotekada turar joy binolarining energiya samaradorlik darajasi qo'shimcha iqtisodiy mezon sifatida baholanadi. Bu esa uy-joy bozorida investitsiya qarorlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yashil ipotekaning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, turar joy sektorining yuqori energiya iste'moli bilan izohlanadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida binolar umumiy energiya iste'molining taxminan 40 foizini va CO₂ chiqindilarining 36 foizini tashkil etadi. Shu sababli, aynan uy-joy sektorida energiya samaradorligini oshirish iqlim siyosatining eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston sharoitida yashil ipoteka va yashil kreditlash tizimi huquqiy va institutsional asoslarda bosqichma-bosqich mustahkamlanib bormoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da moliyaviy sektor orqali ekologik barqarorlikni ta'minlovchi mexanizmlarni, xususan, yashil kreditlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Unda qayd etilishicha, yashil moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri qurilish sektorida energiya samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shuningdek, 2021-yilda "Yashil moliyalashtirish bo'yicha yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, uning asosida Markaziy bank hamda tijorat banklariga yashil moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va keng joriy etish tavsiya etilgan.

Mazkur tadqiqotning obyekti O'zbekiston sharoitida yashil ipoteka kreditlash tizimi hamda uning uy-joy bozori, bank-moliya sektori va energiya samaradorligi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat. Tadqiqot predmeti esa yashil ipoteka mexanizmlarini joriy etish, ularni moliyalashtirish, tartibga solish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy hamda huquqiy munosabatlarni qamrab oladi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston sharoitida yashil ipoteka tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda uni milliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: yashil ipoteka tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini yoritish; xalqaro amaliyot va mavjud modellarni tahlil qilish; O'zbekistonda yashil kreditlash va ipoteka bozorining amaldagi holatini baholash; sohadagi muammo va cheklovlarni aniqlash; hamda yashil ipoteka tizimini rivojlantirishga qaratilgan institutsional, moliyaviy va huquqiy takliflarni ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil ipoteka bo'yicha ilmiy tadqiqotlar barqaror moliyalashtirish nazariyasi, ko'chmas mulk iqtisodiyoti hamda energetika siyosati kesishmasida shakllangan. Bir qator tadqiqotlar energiya samaradorligi va turar joy qiymati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni isbotlaydi. Xususan, Brounen va Kok energiya sertifikatlariga ega uy-joylarning bozor qiymati yuqoriroq ekanligini aniqlagan [1]. Fuerst va boshqalar o'z tadqiqotlarida xaridorlar energiya samarador uy-joylar uchun qo'shimcha to'lov amalga oshirishga tayyor ekanliklarini ko'rsatgan [2]. Ameli va Brandt uy xo'jaliklarining energiya samaradorligiga investitsiya kiritish qarorlarini tahlil qilib, moliyalashtirishga kirish imkoniyatining cheklanganligi hamda natijalarning noaniqligi asosiy to'siqlardan biri ekanligini qayd etgan [3].

Institutsional manbalar orasida Energy Efficient Mortgages Initiative (EEMI) va EeMAP (Energy Efficient Mortgages Action Plan) loyihalari alohida ahamiyatga ega. Mazkur tashabbuslar Yevropa miqyosida energiya samarador ipotekalar uchun yagona metodologik asosni shakllantirishga qaratilgan [4]. Yevropa bank organi hisobotlarida esa yashil ipotekalarni standartlashtirish va shaffoflikni oshirish zarurligi ta'kidlangan [5]. Buyuk Britaniyadagi yashil ipoteka bozorining holatini tahlil qiluvchi Yashil moliya instituti (Green Finance Institute) hisobotlari, jumladan milliy va tarmoq sharhlari, muhim manba sifatida e'tirof etiladi [6]. Mazkur hujjatlarda mahsulotlar sonining ortib borayotgani qayd etilgan bo'lsa-da, ularning makroiqtisodiy tebranishlarga nisbatan zaifligi hamda hukumat tomonidan qo'llanilayotgan rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi alohida ta'kidlanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, yashil ipotekalar barqaror rivojlanishni ta'minlashda istiqbolli moliyaviy vosita hisoblanadi. Biroq ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha yagona metodologik (standartlashtirilgan) asoslarning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda institutsional integratsiya jarayonlaridagi mavjud cheklovlar ushbu yo'nalishning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kontent tahlil, analiz va sintez usullari, iqtisodiy va statistik tahlil, qiyoslash, guruhlash hamda keys-stadi usullaridan foydalanildi. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy tahlil asosida yashil moliyalashtirishning iqlim va energetika siyosati maqsadlariga ta'siri o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sharoitida yashil ipoteka amaliyotini tashkil etish va boshqarishning joriy holati tahlili natijalari quyidagilar bilan izohlanadi.

O'rganishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil kreditlar atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlariga moslashish siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida asta-sekin moliyaviy siyosat kun tartibiga faol kirib bormoqda. Quyidagi jadval ma'lumotlari mamlakatda yashil kreditlash tizimi huquqiy va institutsional jihatdan shakllanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, 2019-yildan boshlab "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini amalga oshirish yo'lida muhim strategik hujjatlar qabul qilinib, ular moliyaviy sektor oldiga yangi vazifalarni qo'ydi.

Ayniqsa, 2021-yilda ishlab chiqilgan "Yashil moliyalashtirish bo'yicha yo'l xaritasi" banklar uchun yangi turdagi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish uchun asos yaratdi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan 2022-yilda tasdiqlangan "Barqaror moliyaviy rivojlanish" konsepsiyasi kreditlash amaliyotiga ekologik mezonlarni kiritish orqali yashil kreditlashga institutsional yondashuvni sezilarli darajada kuchaytirdi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda yashil kreditlashni tartibga soluvchi asosiy huquqiy va institutsional hujjatlar¹

T/r	Hujjat nomi	Qabul qilingan yil	Asosiy mazmuni	Yashil kreditlashga ta'siri
1	"Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"	2019-yil	Atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash	Moliyaviy sektorda yashil moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi
2	"Yashil moliyalashtirish bo'yicha yo'l xaritasi"	2021-yil	Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish yo'nalishlarini belgilaydi	Banklar tomonidan yashil kredit mahsulotlarini ishlab chiqishga asos yaratadi
3	"Barqaror moliyaviy rivojlanish" konsepsiyasi (Markaziy bank)	2022-yil	Barqarorlik mezonlarini moliyaviy tizimga integratsiya qilish	Banklar kredit portfelida yashil loyihalar ulushini oshirishni nazarda tutadi
4	Xalqaro moliyaviy tashkilotlar (ADB, EBRD va boshqalar) bilan bitimlar	2020-yildan boshlab	Energiya samaradorligi va past karbonli texnologiyalarni moliyalashtirish	Xalqaro grantlar va imtiyozli kreditlar orqali yashil qurilish loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar moliyaviy resurslarni jalb etish hamda ilg'or tajribalarni joriy etishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa O'zbekistonda yashil kreditlash bozorining bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini yaqqol ifodalaydi.

O'zbekiston moliyaviy sektorida yashil kreditlash konsepsiyasi izchil rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlarning ushbu jarayondagi ishtiroki hali ham cheklangan bo'lib, tizim shakllanish bosqichida ekanligi kuzatiladi. Hozirgi vaqtda ayrim banklar ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy mahsulotlarni sinov tariqasida taklif qilayotgan bo'lsa-da, keng ko'lamli va tizimli yondashuv hali to'liq shakllanmagan.

Masalan, Ipoteka-bank, Asaka bank, Agrobank kabi yirik tijorat banklari xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda muayyan "yashil" yo'nalishlarda kredit mahsulotlarini taklif etmoqda. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hamda Osiyo taraqqiyot banki (ADB) orqali ajratilgan imtiyozli kredit liniyalari asosida ayrim banklar quyosh panellari, energiya samarador texnologiyalar va issiqlik izolyatsiyasi bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirmoqda. Biroq ushbu moliyalashtirishlar, asosan, korxonalar yoki yirik ishlab chiqaruvchilar bilan cheklanib qolmoqda, uy-joy qurilishi sohasida keng aholini qamrab oluvchi kredit mexanizmlari esa hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Shu bilan birga, 2023-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan barqaror moliyaviy mahsulotlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur tavsiyalar banklar uchun ekologik mezonlarga asoslangan kredit baholash mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutadi. Biroq ko'plab tijorat banklarida bunday mezonlar hali to'liq joriy etilmagan yoki amaliyotga yetarli darajada integratsiyalashmagan.

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bank hujjatlari hamda rasmiy xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan hamkorlik bitimlari asosida mualliflar tomonidan shakllantirilgan.



Ushbu holat, bir tomondan, banklarning texnik salohiyati hamda ekologik tavakkalchilikni baholash bo'yicha malakasi yetarli emasligi bilan, ikkinchi tomondan esa yashil kreditlarga bo'lgan talabning nisbatan pastligi bilan izohlanadi.


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud yashil kredit mahsulotlari hajmi va ularning banklar umumiy kredit portfeli tarkibidagi ulushi juda past darajada qolmoqda. Bu esa yashil kreditlash konsepsiyasining hozircha marginal darajada ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, aholining ekologik ong darajasi, yashil texnologiyalarga bo'lgan ishonchi hamda ularning iqtisodiy samaradorligi to'g'risidagi bilimlar darajasi ham ushbu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yerda banklarning marketing va axborot siyosati ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yashil kredit mahsulotlari to'g'risida aholining xabardorlik darajasi hali yetarli emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank sektorining yashil kreditlashdagi ishtirokini kuchaytirish uchun qator muhim islohotlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, ekologik mezonlarga asoslangan risklarni baholash tizimini yaratish, bank xodimlari uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, shuningdek, aholining ekologik investitsiyalar bo'yicha moliyaviy savodxonligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanishi lozim.

O'zbekistonda yashil kreditlash mexanizmlarining rivojlanishida tijorat banklari va moliyaviy institutlar muhim rol o'ynamoqda, biroq ularning ushbu sohadagi ishtiroki hozircha cheklangan shaklda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kungacha bir necha yirik banklar, jumladan Ipoteka-bank, Asaka-bank va Agrobank xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni, xususan quyosh panellari va issiqlik izolyatsiyasi tizimlarini moliyalashtirishga qaratilgan kredit mahsulotlarini taklif etmoqda. Biroq ushbu tashabbuslar, asosan, kichik hajmli va sinov loyihalar ko'rinishida bo'lib, ularning aholining keng qatlamlariga yetib borish darajasi pastligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan barqaror moliyalashtirish konsepsiyasi asosida banklarga ekologik mezonlarni kredit baholash tizimiga integratsiyalash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Biroq aksariyat tijorat banklarida bunday yondashuv hali amaliyotga to'liq joriy etilmagan. Ushbu holat, bir tomondan, moliyaviy institutlarning texnik va institutsional tayyorgarligi yetarli emasligi bilan, ikkinchi tomondan esa yashil kredit mahsulotlariga bo'lgan ijtimoiy talabning sustligi bilan izohlanadi.

Ayni paytda, mavjud yashil kreditlar banklarning umumiy kredit portfeli tarkibida taxminan 5–7% atrofida ulushni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich yashil kreditlash tizimining hali shakllanish bosqichida ekanligini va uning rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarining yashil kreditlash portfeli (mln AQSh dollari)²

Mazkur rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarining yashil kreditlashga bo'lgan yondashuvi ijobiy o'zgarishlar bosqichiga o'tmoqda. 2023-yildan 2024-yilga o'tish jarayonida barcha ko'rsatilgan banklarda yashil kredit portfeli hajmi sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, Ipoteka-bank va Asaka-

² Banklar faoliyati bo'yicha ochiq manbalar (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik axborotlari hamda tijorat banklarining rasmiy hisobotlari) asosida mualliflar tomonidan umimlashtirilgan.



bank ushbu yo'nalishda yetakchi o'rinlarni egallab, mos ravishda qariyb 33% va 40% ga yaqin o'sish sur'atlariga erishgan. Bu holat banklarning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorligi kuchayganini hamda yashil loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ichki siyosatlarini faol ravishda takomillashtirayotganini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, nisbatan kichikroq banklar — Hamkorbank va Qishloq qurilish banki — ham yashil kreditlash segmentiga bosqichma-bosqich kirib kelmoqda. Ularning portfeli hajman kichik bo'lsa-da, o'sish sur'atlari barqaror ijobiy tendensiyaning aks ettiradi. Bu holat umumiy sektoral transformatsiya jarayonining boshlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, grafikdagi ma'lumotlar yashil kreditlash bo'yicha davlat va moliyaviy sektorda olib borilayotgan siyosatlarning real iqtisodiy ifodasini ko'rsatishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston tajribasida yashil moliyalashtirish mexanizmlari, asosan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik doirasida shakllangan. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan "Qishloq joylarda energiya samarador uy-joy qurilishi" dasturi doirasida bir qator namunaviy loyihalar moliyalashtirilgan bo'lib, ularda energiya tejamkor materiallar va konstruksiyalar qo'llanilgan. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham bir qator tijorat banklari orqali energiya samarador texnologiyalarni xarid qilish va ularni qurilish jarayonlariga integratsiyalash uchun imtiyozli kredit liniyalarini taqdim etgan. Biroq ushbu mablag'lar, asosan, yuridik shaxslar va yirik pudratchilar uchun yo'naltirilgan bo'lib, yakka tartibdagi fuqarolar hamda kichik qurilish subyektlari uchun ularning mavjudligi sezilarli darajada cheklangan.

Tijorat banklari tomonidan energiya samaradorligi yo'nalishida taklif etilayotgan kredit mahsulotlari soni va hajmi nisbatan past darajada bo'lib, ular ko'pincha umumiy ipoteka kreditlari doirasida amalga oshirilmoqda. Ya'ni, energiya tejamkor texnologiyalarni o'z ichiga olgan qurilish loyihalari uchun alohida imtiyozli moliyaviy shartlar keng joriy etilmagan. Mavjud kredit shartlari — xususan, yuqori foiz stavkalari, qisqa muddatli to'lov grafigi va qat'iy garov talablari — aholining ushbu kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Natijada, energiya samarador texnologiyalarining joriy etilishi ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim bo'lishiga qaramay, ularning keng ommalashuvi yetarli darajada ta'minlanmayapti.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, energiya samarador qurilish loyihalarini moliyalashtirishda tizimli yondashuv hamda sektorlararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarur. Xususan, tijorat banklari uchun ekologik mezonlarga asoslangan maxsus kredit liniyalarini joriy etish, ularni davlat kafolatlari bilan qo'llab-quvvatlash, subsidiya va grant mexanizmlarini kengaytirish, shuningdek ekologik sertifikatlash tizimini ishlab chiqish orqali moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali nafaqat yashil qurilish amaliyoti kengayadi, balki mamlakatning umumiy energiya samaradorligi darajasi oshadi hamda xalqaro majburiyatlarga mos iqlim siyosatini amalga oshirish imkoniyati kengayadi.

O'zbekiston uy-joy qurilishida energiya samaradorligini moliyalashtirish bo'yicha dastlabki tashabbuslarni amalga oshirayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayon hali to'liq tizimli tus olmagan. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda ayrim banklar tomonidan energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llagan loyihalarga kreditlar ajratilayotgan bo'lsa-da, ular asosan yirik pudratchilar va korxonalarga yo'naltirilgan. Aholi uchun qulay va keng qamrovli moliyaviy mexanizmlar, jumladan imtiyozli kreditlar va subsidiya tizimlari, yetarli darajada rivojlanmagan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda yashil ipotekani moliyalashtirishga doir asosiy dasturlar va moliyaviy institutlar³

Dastur / tashabbus nomi	Moliyaviy tashkilot	Yo'nalishi	Foydalanuvchilar
ADB – Qishloq joylarda yashil qurilish dasturi	Osiyo taraqqiyot banki (ADB)	Qishloq hududlarda ekologik uy-joy qurilishini moliyalashtirish	Yakka tartibdagi quruvchilar va kichik loyihalar
EBRD – Yashil iqtisodiyot kredit liniyasi	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD)	Tijorat banklari orqali energiya samarador texnologiyalarni kreditlash	Yuridik va jismoniy shaxslar
KfW – Energiya tejamkor uylar loyihasi	Germaniya taraqqiyot banki (KfW)	Imtiyozli shartlarda past karbonli qurilish loyihalarini qo'llab-quvvatlash	Qurilish kompaniyalari va pudratchilar
Ipoteka-bank – energiya samarador kredit mahsuloti	Ipoteka-bank	Aholi uchun yashil qurilish texnologiyalariga yo'naltirilgan ipoteka kreditlari	Aholi (ipoteka oluvchilar)
Markaziy bank – "Barqaror moliyalashtirish" konsepsiyasi	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki	Banklar faoliyatida ekologik mezonlarga asoslangan moliyalashtirish siyosatini joriy etish	Moliyaviy institutlar va tijorat banklari

3 ADB, EBRD, KfW hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar, shuningdek tijorat banklarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan ochiq hisobotlar asosida mualliflar tomonidan shakllantirilgan.



Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda uy-joy qurilishida energiya samaradorligini moliyalashtirish borasida bir qator institutsional tashabbuslar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu tashabbuslarning asosiy qismini xalqaro moliyaviy institutlar — Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Germaniya taraqqiyot banki — ilgari surmoqda. Ular tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslar, asosan, qurilish kompaniyalari, pudratchilar hamda tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan yirik loyihalarga yo'naltirilmoqda.

Shu bilan birga, Ipoteka-bank tomonidan aholiga energiya samarador qurilish texnologiyalarini qo'llagan holda ipoteka kreditlarining taqdim etilishi ushbu yo'nalishdagi ichki moliyaviy mexanizmlarning ham shakllanayotganidan dalolat beradi. Markaziy bank esa banklar faoliyatiga ekologik mezonlarni integratsiyalash orqali yashil moliyalashtirishni tizimli tarzda yo'lga qo'yishni maqsad qilgan. Biroq mavjud tashabbuslarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, energiya samarador uy-joy qurilishini to'liq qamrab oluvchi, keng ko'lamli hamda aholi ehtiyojlariga moslashtirilgan moliyaviy tizim hali shakllanmagan. Bu holat mazkur yo'nalishda davlat siyosatini institutsional jihatdan yanada kuchaytirishni talab etadi.

Yana bir muhim to'siq — aholining va quruvchilarning ekologik ong darajasining pastligidir. Energiya samarador texnologiyalar yoki barqaror qurilish materiallari bilan bog'liq loyihalar ko'pincha qimmat, noma'lum yoki ishonchsiz deb qabul qilinadi. Bu esa yashil kredit mahsulotlariga bo'lgan talabning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Natijada banklar ushbu yo'nalishda yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasi ham mazkur jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki yashil kreditlar, ularning afzalliklari va shartlari haqida yetarli axborot mavjud emas.

Regulyativ muammolar ham tizimning muhim zaif nuqtalaridan biridir. O'zbekistonda hali yashil kreditlar bo'yicha yagona yuridik ta'rif va standartlar to'liq ishlab chiqilmagan. Shuningdek, yashil kreditlarni ajratish bo'yicha aniq talablar, monitoring mezonlari hamda rag'batlantiruvchi soliqqa oid mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan. Mavjud normativ-huquqiy baza asosan umumiy strategik hujjatlar darajasida bo'lib, u amaliy qo'llanmalar va aniq mexanizmlar bilan to'ldirilmagan. Bu esa tijorat banklari va investorlar uchun muayyan noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda sertifikatlash tizimining mavjud emasligi yashil kreditlash tizimining ishonchligini pasaytiradi. Xususan, ekologik jihatdan samarali deb e'tirof etiladigan qurilish materiallari yoki texnologiyalar uchun davlat tomonidan tan olingan mustaqil baholash tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa moliyalashtirilayotgan loyihalarning haqiqatan ham "yashil" ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi hamda banklarning ekologik loyihalarni moliyalashtirishga bo'lgan ishonchini pasaytiradi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonda yashil kreditlash tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar va ularning ehtimoliy yechimlari⁴

Muammo yoki to'siq	Tahliliy tavsif	Ehtimoliy yechim
Banklarda yashil kreditlar uchun risklarni baholash tizimining mavjud emasligi	Banklar yashil loyihalarni yuqori xavfli deb baholab, ularni moliyalashtirishdan tiyilmoqda	Ekologik risklarni baholash tizimi va tegishli ko'rsatkichlarni ishlab chiqish
Aholining ekologik ong darajasi va moliyaviy savodxonligining pastligi	Aholi yashil mahsulotlarga nisbatan ishonchsiz munosabatda bo'lib, ularga bo'lgan qiziqish darajasi past	Aholi va quruvchilar o'rtasida keng qamrovli axborot kampaniyalarini tashkil etish
Yashil kreditlar uchun aniq yuridik ta'rif va normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi	Moliyaviy institutlar uchun aniq reglamentlarning mavjud emasligi noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda	Yashil kreditlash bo'yicha yuridik asoslarni ishlab chiqish va standartlashtirish
Sertifikatlash va baholash tizimlarining rivojlanmaganligi	Loyihalarning ekologik talablarga muvofiqligini baholash imkoniyatlari cheklangan	Mustaqil sertifikatlash organlari va baholash tizimini joriy etish
Yashil texnologiyalarning yuqori boshlang'ich qiymati	Kam daromadli aholi qatlamlari uchun yashil qurilma va materiallar moliyaviy jihatdan qiyin	Yashil texnologiyalarni xarid qilishni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiya va grant mexanizmlarini kengaytirish

Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda yashil kreditlash tizimining keng rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni tizimli tarzda yoritib beradi. Tahlildan ko'rinadiki, ushbu muammolar faqat moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan cheklanmay, balki kompleks institutsional va ijtimoiy to'siqlar bilan ham bog'liqdir. Jumladan, tijorat banklarida ekologik risklarni tahlil qilish va baholash bo'yicha malaka hamda metodologiyalarning

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hamda xalqaro moliyaviy institutlar faoliyati, shuningdek mavjud normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga asoslangan holda mualliflar tomonidan tuzilgan.



yeterli darajada shakllanmaganligi moliyalashtirish jarayonining asosiy cheklovlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, aholining ekologik ong darajasi hamda yashil texnologiyalarga bo'lgan ishonchining pastligi mavjud moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan talabni kamaytirmoqda.


Normativ-huquqiy asoslarning yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi va sertifikatlash tizimining rivojlanmaganligi esa banklar hamda investorlar uchun risk va noaniqlik darajasini oshirmoqda. Shu sababli, jadvalda har bir muammo uchun taklif etilgan yechimlar — xususan, baholash tizimlarini yaratish, axborot kampaniyalarini tashkil etish, yuridik normalarni ishlab chiqish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish — sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonning yashil kreditlash sohasidagi tajribasi xalqaro standartlar bilan taqqoslanganda hali boshlang'ich bosqichda ekanligi kuzatiladi. Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya va Kanada kabi davlatlarda yashil kreditlash institutsional jihatdan shakllangan, normativ-huquqiy jihatdan aniq tartibga solingan hamda moliyaviy bozorlarda muhim segment sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu mamlakatlarda yashil kreditlar uchun maxsus standartlar (masalan, EU Taxonomy, Green Bond Principles), sertifikatlash tizimlari, ekologik risklarni baholovchi reyting agentliklari hamda davlat tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlari keng qo'llaniladi. Aksincha, O'zbekistonda ushbu mexanizmlarning aksariyati endigina shakllanmoqda yoki hali to'liq joriy etilmagan.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda yashil kreditlarning bozor segmenti tobora kengayib bormoqda. Masalan, Xitoyda yashil kreditlar banklar umumiy kredit portfelining 10 foizdan ortig'ini tashkil etadi, Yaponiyada esa yashil obligatsiyalar bozori orqali aholi va investorlar ushbu loyihalarga bevosita investitsiya kiritish imkoniyatiga ega. O'zbekistonda esa bunday ko'rsatkichlar endigina rasmiy statistikaga kiritilmoqda. Yashil obligatsiyalar bozori dastlabki bosqichda shakllanmoqda, kreditlar esa umumiy moliyalashtirish tizimida alohida statistik toifa sifatida yuritilmoqda.

Shu bilan birga, ijobiy jihat sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston xalqaro moliyaviy institutlar bilan faol hamkorlik olib bormoqda va ularning texnik ko'magi asosida bir qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, ADB, EBRD, KfW hamda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda yashil qurilish, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya yo'nalishlarida dastlabki loyihalar yo'lga qo'yilgan. Bu esa mamlakatning global barqaror rivojlanish maqsadlariga integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Umuman olganda, O'zbekistonning yashil kreditlash borasidagi hozirgi pozitsiyasi xalqaro standartlarga nisbatan ma'lum darajada ortda bo'lsa-da, mavjud tashabbuslar va rivojlanish tendensiyalari ushbu yo'nalishda katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash, standartlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, sektorlararo hamkorlikni kuchaytirish hamda banklar institutsional salohiyatini oshirish zarur (2-rasm).



2-rasm. Turli davlatlarda yashil kreditlarning umumiy bank kreditlaridagi ulushi (% , 2024-yil)⁵

5 Xalqaro moliyaviy institutlar (EBRD, ADB, IMF, World Bank) hamda milliy markaziy banklar tomonidan e'lon qilingan ochiq statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan; O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar mualliflar tomonidan umumlashtirilgan tahlillarga asoslangan.



Rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan iqtisodiyotlarda yashil kreditlash tizimi moliyaviy sektorning ajralmas qismiga aylangan. Xususan, Yevropa Ittifoqida ushbu ko'rsatkich qariyb 15% ga yetgan bo'lib, bu hududda yashil kreditlar uchun qat'iy texnik me'yorlar va normativ-huquqiy bazaning shakllanganligidan dalolat beradi.

Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlar ham ushbu yo'nalishda faol siyosat yuritib, tegishli yuridik asoslar, markazlashtirilgan baholash tizimlari hamda davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish choralari orqali yashil moliyalashtirishni sezilarli darajada kengaytirgan.

O'zbekiston misolida esa ushbu ko'rsatkich atigi 1,8% ni tashkil etadi. Bu holat mamlakatda yashil kreditlash tizimi hali boshlang'ich bosqichda ekanini, shu bilan birga, uning tizimli rivojlanishi uchun katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston moliyaviy sektorida yashil kreditlash konsepsiyasi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlarning ushbu jarayondagi ishtiroki hali ham cheklangan bo'lib, tizim shakllanish bosqichida ekanligi kuzatiladi. Hozirgi vaqtda ayrim banklar ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy mahsulotlarni sinov tariqasida taklif etayotgan bo'lsa-da, keng ko'lami va faol yondashuv hali to'liq shakllanmagan. Bank sektorining yashil kreditlashdagi ishtirokini kuchaytirish uchun muhim islohotlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, ekologik mezonlarga asoslangan risklarni baholash tizimini yaratish, bank xodimlari uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, shuningdek aholining ekologik investitsiyalar bo'yicha moliyaviy savodxonligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanishi lozim. Energiya samarador qurilish loyihalarini moliyalashtirishda tizimli yondashuv hamda sektorlararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarur. Xususan, tijorat banklari uchun ekologik mezonlarga asoslangan maxsus kredit liniyalarini joriy etish, ularni davlat kafolatlari bilan qo'llab-quvvatlash, subsidiya va grant mexanizmlarini kengaytirish hamda ekologik sertifikatlash tizimini ishlab chiqish orqali moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish lozim. Xalqaro tajribalar, milliy iqtisodiyotning hozirgi holati hamda uy-joy bozorining rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida yashil ipoteka amaliyotini joriy etish va samarali boshqarish bo'yicha bosqichma-bosqich yo'l xaritasini ishlab chiqish taklif etiladi. Mazkur yo'l xaritasi yashil ipoteka tizimini qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda shakllantirishni nazarda tutadi, ya'ni 2025-2026-yillarda normativ-huquqiy va institutsional asoslarni shakllantirish, shu jumladan yashil ipoteka tushunchasi, uning subyektlari va obyektlarini belgilovchi hujjatlarni ishlab chiqish, energiya samarador uy-joylar uchun milliy standartlar va mezonlarni tasdiqlash, baholash va sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish, tijorat banklari uchun metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish hamda pilot loyihalarni amalga oshirish; 2026-2028-yillarda moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, jumladan foiz stavkalarini subsidiyalash, davlat kafolatlari va sug'urta instrumentlarini joriy etish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, yashil obligatsiyalar orqali uzoq muddatli resurslarni safarbar etish, banklar va qurilish tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish hamda aholining xabardorligini oshirish; 2028-2030-yillarda esa yashil ipoteka tizimini to'liq integratsiyalashgan va barqaror modelga aylantirish, uni uy-joy siyosati va "yashil iqtisodiyot" strategiyasi bilan uyg'unlashtirish, yagona raqamli platformani joriy etish, energiya samaradorligini monitoring qilish tizimini kuchaytirish, bozor raqobatini rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samaradorlik asosida tizimni doimiy takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brounen, D., & Kok, N. (2011). On the economics of energy labels in the housing market. *Journal of Environmental Economics and Management*, 62(2), 166–179. <https://doi.org/10.1016/j.jeem.2010.11.006>
2. Fuerst, F., McAllister, P., Nanda, A., & Wyatt, P. (2015). Does energy efficiency matter to home-buyers? *Energy Economics*, 50, 1–11. <https://doi.org/10.1016/j.eneco.2015.04.003>
3. Ameli, N., & Brandt, N. (2015). Determinants of households' investment in energy efficiency. *Energy Policy*, 87, 299–310. <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2015.09.006>
4. Energy Efficient Mortgages Initiative (EEMI). (2016). *Energy Efficient Mortgages Action Plan (EeMAP)*. Brussels.
5. European Banking Authority (EBA). (2023). *Report on Green Loans and Mortgages*. Paris.
6. Green Finance Institute. (2024). *The Way Ahead for the UK Green Mortgage Market*. London.
7. KfW. (2023). *Promotion of Energy-Efficient Construction and Refurbishment*. Frankfurt am Main.
8. Freddie Mac. (2022). *Green CHOICE Mortgages® Product Guide*. McLean, VA.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>